



XALQ DEPUTATLARI FARG'ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 25-avgust

VII-11-90-11-163-K/25

Farg'ona tumani

O'zbekiston "Adolat" SDP guruhi ish rejasiga ko'ra, "Farg'ona tuman tibbiyot birlashmasida bolalar o'rtasida kuzatilayotgan "yassioyoqlik" va "skolioz" kasalligi bilan kasallanish holati, kasalliklarni oldini olish hamda davolash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida

Tumanimizda 0-18 yoshgacha bo'lgan bolalar soni 78217 nafarni tashkil etadi. 2025-yil 8 oy mobaynida 57779 nafar (73.9%) bolalar chiqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.

Shundan: Maktablarda 4094 nafar, Maktabgacha ta'lim muassasalarda 22842 nafar, uyushmagan bolalar -14431 nafar.

Jami tibbiy ko'rikdan o'tkazilganlardan 21439 (37.1%) kasalliklar aniqlandi. Topilgan kasallardan 15781 nafari (73.8%) sog'lomlashtirilgan, shundan 15608 nafari (98.9%) ambulator sharoitda, 163 nafari (1.0%) shifoxonada, 10 nafari (0.1%) sanatoriyada sog'lomlashtirildi. 102 nafar bolalarda ortopedik kasalliklar aniqlangan. Shundan 43 nafari (45.2%) qomat buzilishi, 11 nafari (11%) skolioz kasalliklar aniqlangan.

Hozirgi kunda travmatolog mutaxassisda 25 nafar bolalar skolioz kasalligi bilan, 77 nafar bolalar maymoqlik kasalligi bilan "D" nazoratda turadi. 4 nafar skolioz bilan, 28 nafar maymoqlik kasalligi bilan "D" hisobda turganlar sog'lomlashtirildi.

O'zbekiston "Adolat" SDP Farg'ona viloyat Kengashining 2025-yil 16-iyundagi O'zbekiston "Adolat" SDPning 2025-yilga mo'ljallangan Ish rejasida partianing "Yoshlar salomatligi-partiya e'tiborida" loyixasi doirasida jamoatchilik nazorati tartibida ta'lim tashkilotlaridagi bolalar o'rtasida kuzatilayotgan "yassioyoklik" va "skolioz" kasalliklarini o'rGANISH maqsadida tibbiy ko'rik tashkil etish hamda mazkur masal yuzasidan viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasi hamda tuman-shahar tibbiyot birlashmalarining hisobotini eshitish va xalq deputatlari viloyat, tuman-shahar Kengashlarining sessiyalariga masala kiritish to'g'risida"gi №01-17/32-sonli xatiga asosan O'zbekiston "Adolat" SDP partiya guruhi "O'zbekiston "Adolat" SDP guruhi ish rejasiga ko'ra, "Farg'ona tuman tibbiyot birlashmasida bolalar o'rtasida kuzatilayotgan "yassioyoyqlik" va "skolioz" kasalligi bilan

kasallanish holati, kasalliklarni oldini olish hamda davolash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida”gi tuman tibbiyat birlashmasi boshlig‘i X.Toshboevning hisobotini inobatga olib, hamda Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashi bolalar salomatligini muhofaza qilish, ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, “yassioyoqlik” va “skolioz” kabi ortopedik kasalliklarning oldini olish hamda mavjud holatlarni samarali davolashga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Farg‘ona tumani Kengashi

Qaror qiladi:

1. “O‘zbekiston “Adolat” SDP guruhi ish rejasiga ko‘ra, “Farg‘ona tuman tibbiyat birlashmasida bolalar o‘rtasida kuzatilayotgan “yassioyoqlik” va “skolioz” kasalligi bilan kasallanish holati, kasalliklarni oldini olish hamda davolash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida”gi tuman Tibbiyat birlashmasi boshlig‘i X.Toshboevning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. **Farg‘ona tuman tibbiyat birlashmasi** (Toshboev)ga:
 - 2.1. Bolalar o‘rtasida “Yassioyoqlik” va “skolioz” kasalliklarini erta aniqlash, oldini olish va to‘g‘ri davolash bo‘yicha malakali kadrlar sonini ko‘paytirish;
 - 2.2. bolalar o‘rtasida “yassioyoqlik” va “skolioz” kasalliklarini erta aniqlash maqsadida doimiy profilaktik ko‘riklar tashkil etish;
 - 2.3. mакtab va maktabgacha ta’lim muassasalarida davolovchi gimnastika, ortopedik mashqlar va sog‘lomlashtirish choralarini yo‘lga qo‘yish;
 - 2.4. mazkur kasalliklar bilan kasallangan bolalarni ro‘yxatga olish va ularning davolanish jarayonlarini qat’iy nazorat qilishi belgilansin.
3. **Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi** (Yuldashev)ga:
 - 3.1. umumta’lim maktablarida jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirish, ortoped-shifokorlar bilan hamkorlikda maxsus dastur ishlab chiqish;
 - 3.2. o‘quvchilarning partada to‘g‘ri o‘tirishi, to‘g‘ri poyabzal kiyishi hamda o‘quv anjomlaridan to‘g‘ri foydalanishiga qat’iy e’tibor qaratish vazifasi yuklatilsin.
4. **Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi** (Abduraximov)ga:

Ushbu qarorda belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur moddiy- texnika vositalari va mablag‘lar bilan ta’minalash yuzasidan taklif kiritish topshirilsin.

 5. “Bolalar o‘rtasida kuzatilayotgan “yassioyoqlik” va “skolioz” kasalliklari” bo‘yicha masala Farg‘ona viloyati Kengashi sessiyasida ko‘rib chiqilishi tavsiya etilsin.
 6. Mazkur qaror ijrosi yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar haqidagi axborot **har chorakda tuman Kengashiga taqdim etilsin va muhokama etilishi belgilansin.**
 7. Mazkur qaror ijrosini ta’minalash tuman hokimi o‘rinbosari (Toshpo‘latov) va ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Farg‘ona tumani Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (O.Dadajonova)lar zimmasiga yuklatilsin

Kengash raisi



INOMOV XAMIDULLO
TADJIYEVICH